

**QO‘QON DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI  
ILMIY XABARLARI  
(2025-yil 3-soni)**



**IJTIMOIY FANLAR  
SOCIAL STUDIES**

## **MUSTAQILLIK YILLARIDA NAVOIY VILOYATIDA MODDIY-MADANIY MEROSENING TIKLANISHI YO‘LIDAGI AMALIY HARAKATLAR**

**Nematova Nilufar Qayimovna**

*Navoiy davlat universiteti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq” kafedrasi katta o‘qituvchisi*

+998991054411

*nematova.1975@bk.ru*

**Annotatsiya.** Maqolada Navoiy viloyatida mustaqillik yillarida madaniy merosni tiklash, uni asrab-avaylash va boyitgan holda kelgusi avlodlarga yetkazib berish yo‘lidazu ulkan bunyodkorlik ishlarihu amalga oshirilishi, madaniy meros boshqarmasi tomonidan moddiy madaniy meros obyektlarini aniqlash, hisobga olish, muhofaza qilish, targ‘ib qilish, davlat reyestri, pasporti va davlat kadastrini yuritish, qo‘riqlanadigan tegralarini belgilash, arxeologiya meros obyektlari, muzey ashyolari va kolleksiyalari, madaniy boyliklarini muhofaza qilish va ulardan foylanishga oid qonun hujjatlariga rioya etilishi hamda sohada davlat nazoratini amalga oshirish asosida tahlil etiladi.

**Kalit so‘zlar:** maqbara, qadamjo, eksponat, masjid, madrasa, kolleksiya, monumental, restavratsiya, konservatsiya, arxeologiya

## **ПРАКТИЧЕСКИЕ ДЕЙСТВИЯ ПО ВОССТАНОВЛЕНИЮ МАТЕРИАЛЬНОГО И КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В НАВОЙСКОЙ ОБЛАСТИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ**

**Аннотация.** В статье за годы независимости в Навоийской области осуществлены большие созидательные работы на пути восстановления культурного наследия, его сохранения и обогащения и передачи будущим поколениям, выявления, учета, охраны и популяризации материального культурного наследия. оформление объектов отделом культурного наследия, ведение государственного реестра, паспорта и государственного кадастра, присвоение охраняемых территорий, объектов археологического наследия, музеиных предметов и коллекций, он анализируется на основе соблюдения правовых актов по охране и использованию культурных ресурсов и осуществления государственного контроля в этой сфере.

**Ключевые слова:** мавзолей, экспонат, мечеть, медресе, коллекция, монументал, реставрация, консервация, археология.

## PRACTICAL ACTIONS TOWARDS THE RESTORATION OF CULTURAL HERITAGE IN NAVOI REGION IN THE YEARS OF INDEPENDENCE

*Abstract.* In the article, during the years of independence in Navoi region, the implementation of great creative works in the way of restoration of cultural heritage, preserving and enriching it and delivering it to future generations, identification, consideration, protection and promotion of material cultural heritage objects by the cultural heritage department. making, maintaining the state register, passport and state cadastre, defining protected areas,

archeology is analyzed on the basis of compliance with legal documents on the protection and use of heritage objects, museum objects and collections, cultural assets, and the implementation of state control in the field.

**Keywords:** mavsoleum, shrine, exhibit, mosque, madrasa, collection, monumental, restoration, conservation, archeology

**Kirish.** Madaniy meros avlodlar tomonidan yaratilgan amaliy tajriba, ma’naviy-axloqiy, ilmiy, diniy va madaniy qarashlar, xalq madaniyati va ijodida ifodalangan moddiy va ma’naviy boyliklarni anglatadi. Har bir madaniy meros jamiyat rivojiga o‘ziga xos hissa qo‘shadi.

**Tadqiqot obyekti.** Mustaqillik yillarda ana shu bebahvo madaniy merosni tiklash, uni asrab-avaylash va boyitgan holda kelgusi avlodlarga yetkazib berish yo‘lida ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilib, izchillik bilan davom ettirilmoqda. Navoiy viloyatidagi tarixiy yodgorliklar, masjidu madrasalar, maqbaralar, qadamjolar ham madaniy merosning ajralmas qismidir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, mustabid tuzum davrida ta’qiqlab qo‘yilgan urfatlar, marosim va an’analar, islomiy qadriyatlar, milliy bayramlar qayta tiklandi, o‘zbek tili davlat tili maqomiga ega bo‘ldi, jahon va milliy madaniyatimiz rivojiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk siymolarning nomlari tiklanib, asarlari har tomonlama o‘rganilmoqda, qadamjolari obod etilmoqda. Bunday sa’y-harakatlar boy madaniy merosimizni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash, boyitish, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazib berishda beqiyos ahamiyat kasb etmoqda.

Navoiy viloyatining insoniyat tamadduniga katta hissa bo‘lib qo’shilgan qadimiylar boy tarixi, zamonaviy sivilizatsiyaga ham qo’shayotgan o‘ziga xos ulushi bor. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev “Azim Zarafshon vohasida, behisob tabiiy boyliklar makoni bo’lgan Qizilqum mintaqasida joylashgan Navoiy viloyati, ta’bir joiz bo’lsa, mamlakatimizning duru javohirlar xazinasidir” - der ekan, bu makondagi nafaqat yer osti va usti boyliklarini, balki uning mehnatkash, ma’rifatli, bunyodkor xalqini ham nazarda tutadi[1].

Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, madaniy meros obyektlarini muhofaza qilishning huquqiy asoslari muntazam takomillashtirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, tegishli qonunlar va qonunosti hujjatlari bu boradagi ishlarda muhim dasturilamal bo‘layotir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 29-avgust 1998-yildagi 678-I-sonli “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida”gi

Qonuni[2], O‘zbekiston Respublikasining 30-avgust 2001-yildagi “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘rsida”gi Qonuni[3], O‘zbekiston Respublikasining 12-sentyabr 2008-yildagi 177-sonli “Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunlari[4] va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29-iyul 2002- yildagi 269-sonli “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori[5], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16-yanvar 2018-yildagi F-5181–sonli “Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoyishi[5], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 7-oktyabr 2010-yildagi 222-sonli “2010-2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori[7], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy madaniy meros obyektlari va Yuneskoning umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida[8] bu boradagi ishlarni tashkil etishning huquqiy mexanizmlari aniq belgilab berilgan.

Madaniyat vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan Nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, saqlash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish bo‘yicha 2010-2020-yillarga mo‘ljallangan davlat dasturini amalga oshirishda mas’ul tashkilot sifatida ishtirok etmoqda. Bugungi kunda Navoiy viloyatida jami 437 ta moddiy madaniy meros obyektlari davlat muhofazasiga olingan. Shundan, 340 ta arxeologiya, 70 ta axitektura, 22 ta monumental va 5 ta diqqatga sazovor joylar[9].

Madaniy meros boshqarmasi tomonidan moddiy madaniy meros obyektlarini aniqlash, hisobga olish, muhofaza qilish, targ‘ib qilish, davlat reyestri, pasporti va davlat kadastrini yuritish, qo‘riqlanadigan tegralarini belgilash, arxeologiya meros obyektlari, muzey ashyolari va kolleksiyalari, madaniy boyliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid qonun hujjatlariga rioya etilishi hamda sohada davlat nazoratini amalga oshirish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirildi.

Obyektlarni restavratsiya va konservatsiya qilish bo‘yicha viloyat hududida joylashgan 6 ta madaniy meros obyektlari va 1 ta muzey binosi, xususan, “Mirzachorbog” xon qarorgohi, “Mavlono Orif Deggaroniy”, “Shohimardon”, “Oqmasjid”, “Qo‘rg‘on” masjidlari, Qiziltepa muzeyi binosini restavratsiya va ta’mirlash, tiklash ishlari hamda “Sarmishsoy” davlat muzeyi qo‘riqxonasini muhofazasini kuchaytirish maqsadida kuzatuv kameralari, tungi yoritgich chiroqlari, tomosha minoralari, tashrif markazi qurildi.

YUNESKO Umumjahon merosi ro‘yxati bo‘yicha 2023-yilning 10-25-sentyabr kunlari Saudiya Arabistonining Ar-Riod shahrida YUNESKOning Umumjahon merosining 45-sessiyasida Buyuk-Ipak yo‘lining “Zarafshon – Qoraqum koridori” loyihasi asosida viloyatdagagi 5 ta madaniy meros obyekti ya’ni “Qosim Shayx” majmuasi, “Mir Said Baxrom” maqbarasi,

“Mavlono Orif Deggaroniy” masjidi, “Sardoba” hamda “Karvonsaroy-Malikrabit” arxitektura yodgorliklari YUNESKOning Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritildi[10].

Madaniy meros obyektlarini aniqlash, hisobi va kadastrini yuritish bo‘yicha viloyat hududidagi barcha madaniy meros obyektlarini pasportlashtirish ishlari yakuniga yetkazildi hamda Kadastrlar palatasi Navoiy viloyati boshqarmasi bilan hamkorlikda mavjud 437 ta madaniy meros obyektlaridan 434 ta obyektning davlat kadastr hujjalari rasmiylashtirib, davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritildi va 434 ta obyekt qayta davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi. Qolgan 3 ta madaniy meros obyektlarining kadastr hujjalari rasmiylashtirish ishlari rejali davom ettirilmoqda. Hududdagi barcha madaniy meros obyektlarining pasportlari tayyorlandi[10].

Muzeylarni rivojlantirish, yodgorliklarni muzeylashtirish va milliy muzey fondi davlat katalogini yuritish bo‘yicha Navoiyda viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi va uning to‘rtta filiali bo‘lib, ular “Qosim shayx” majmua muzeyi, “Sarmishsov” davlat muzey-qo‘riqxonasi, Nurota tuman “Tabiiy-me’moriy” majmua muzeyi, Qiziltepa tuman o‘lkashunoslik muzeylaridir.

Viloyat muzeyi va uning filiallari fondida jami 25942 ta eksponat mavjud. Shundan eksponatlarning 24000 tasi yoki shundan 90 foizi davlat katalogi (<http://oks.goskatalog.uz>) saytiga kiritilgan. 2023-yil davomida viloyat bo‘yicha tashrif buyuruvchilar soni jami 26067 nafarni tashkil etdi[10].

**XULOSA.** Navoiy viloyatida madaniy meros obyektlarini himoya qilish, ularni qayta tiklash va mavjudlarini muhofaza qilish borasida har yili bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Xususan, 2023-yil yakuni va 2024-yilda madaniy meros obyektlarini aniqlash, hisobi va kadastrini yuritish bo‘yicha viloyat hududidagi barcha madaniy meros obyektlarini pasportlashtirish ishlari yakuniga yetkazildi.

Mamlakatimizda joylashgan madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ularni asrab-avaylash borasida byudjet mablag‘laridan har yili yetarli darajada ajratilib, ularning himoyasi uchun sarflanmoqda. Navoiy viloyatida 2024-yilgi restavratsiya, konservatsiya hamda ta’mirlash ishlar olib borilish zarur bo‘lgan 4 ta ya’ni, Qiziltepa tumanidagi “Qal’aiy Azizion” masjidi, “Xo‘ja Mashrifat Nabiy” maqbarasi, Karmana tumanidagi “Sardoba” hamda “Do‘rmon” masjidi arxitektura yodgorliklari hamda Nurota tumanida joylashgan “Nur qa’lasi” arxeologiya yodgorliklarini ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirish va muzeyfikatsiya qilish maqsadida Madaniy meros agentligiga zaruriy hujjalarni taylorlanib takliflar kiritildi.[10].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi “Ma’muriy islohotlar doirasida madaniy meros sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori[11] asosida viloyat hokimligi tomonidan moddiy madaniy meros ko‘chmas mulk obyektlarida inklyuziv sharoitlarni yaratish bo‘yicha yagona minimal talablar ishlab chiqildi. Mazkur talablarda 2025-yildan boshlab turistlar tashrif buyuradigan moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlarini restavratsiya qilish, tuzatish, ta’mirlash va arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiyalash, ularni hozirgi zamonda foydalanishga

moslashtirishda madaniy meros obyektlariga zarar yetkazmagan holda nogironligi bo‘lgan shaxslarning to‘siz harakatlanishi uchun minimal sharoitlarni yaratish belgilab berilgan.

Navoiy viloyati bo‘ylab obyektlarni muhofaza qilish va asrab-avaylash borasidagi ishlar hokimliklar va qator mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda bajarib kelinmoqda.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Navoiy o‘tmishi qadim, kelajagi nurli diyor. Навои древний край со светлым будущим. Navoiy an ancient land with a bright future. Тошкент; “Маънавият” 2021, -8b.
2. <https://lex.uz/docs/24377>
3. <https://www.lex.uz/acts/25461>
4. <https://lex.uz/docs/1526440>
5. <https://lex.uz/docs/285207>
6. <https://www.lex.uz/docs/3506332>
7. <https://lex.uz/docs/1688222>
8. <https://lex.uz/uz/docs/5320217>
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi Navoiy viloyati statistika boshqarmasi 2024- yil 28- oktabr 01/3-09-07/2-1241-sonli xati
10. Navoiy viloyatining joriy arxivi. Fond 1, ro‘yxat 1, (Hujjatlarni saralash jarayoni)
11. <https://lex.uz/uz/docs/-6481847>